



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari.....	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari.....	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari.....	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений...	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BIRLAMCHI MANBALAR BILAN ISHLASHNING SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN PEDAGOGIK-METODIK MEXANIZMLARI

Yursinboyev Jaxongir Mexrojidin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarining birlamchi manbalar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Raqamli simulyatsiyalar va pedagogik stimulyatorlarning tarixiy tafakkur hamda manbaviy tahlilni rivojlantirishdagi o'rni asoslangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, birlamchi manbalar, pedagogik stimulyatorlar, manbaviy kompetentlik.

Abstract: The article explores mechanisms for developing future history teachers' competence in working with primary sources through artificial intelligence and digital technologies. The role of digital simulations and pedagogical stimulators in improving historical thinking and source analysis is highlighted.

Key words: artificial intelligence, digital education, primary sources, pedagogical stimulators, source competence.

Аннотация: В статье раскрываются механизмы развития компетентности будущих учителей истории при работе с первичными источниками на основе искусственного интеллекта и цифровых технологий. Обоснована роль цифровых симуляций и педагогических стимуляторов в развитии исторического мышления и анализа источников.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровое образование, первичные источники, педагогические стимуляторы, источниковедческая компетентность.

KIRISH

Tarix ta'limi jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar integratsiyasi faqatgina texnologik modernizatsiya jarayoni sifatida emas, balki birlamchi manbalar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy-metodik tizimni takomillashtirish omili sifatida qaralishi lozim. Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida tahlil qilingan gnoseologik va epistemologik yondashuvlar, shuningdek, xalqaro tajribalar hamda milliy ta'lim amaliyoti holatini o'rganish mazkur masalaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy jahon pedagogikasida sun'iy intellekt texnologiyalari va ta'lim jarayonining integratsiyasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar jadal rivojlanmoqda. Jumladan, 2020-2025-yillar oralig'ida ushbu yo'nalishdagi ilmiy nashrlar hajmining sezilarli darajada ortgani mazkur masalaga bo'lgan ilmiy qiziqish kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish asosan jarayonlarni avtomatlashtirish, axborotni qayta ishlash va boshqaruv samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarga qaratilgan^[1]. Biroq tarix ta'limi kabi gumanitar va germenevtik yondashuvga asoslangan fanlarda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik mexanizmlari hamda amaliy asoslari hali yetarlicha shakllanmagan.

Mazkur metodologik bo'shliq tarix ta'limida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini oddiy texnik vosita sifatida emas, balki o'quvchilarning tarixiy tafakkuri, tahliliy yondashuvi hamda birlamchi manbalar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish vositasi sifatida tadqiq etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, asosiy e'tibor ushbu texnologiyalarni birlamchi manbalar pedagogikasi bilan ilmiy-metodik jihatdan uyg'unlashtirish hamda ularni ta'lim jarayoniga pedagogik mohiyatga mos holda integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilishi zarur.

Raqamli texnologiyalarning tarix ta'limiga kirib kelishi tasodifiy yoki qisqa muddatli jarayon emas, balki uzoq davom etgan tarixiy-metodologik rivojlanish va ta'lim paradigmalari transformatsiyasining mantiqiy natijasi hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Xususan, N. Selwyn sun'iy intellektning ta'lim tizimiga ta'sirini tahlil qilib, uning o'quv jarayonini individuallashtirish va o'quvchilar faoliyatini monitoring qilishdagi imkoniyatlarini asoslab bergan.

W. Holmes, M. Bialik va C. Fadel esa sun'iy intellektning ta'limdagi istiqbollari va xavflarini yoritib, pedagogik nazoratning muhimligini ta'kidlaganlar.

Tarix ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari S. Noiret, D. Cohen va R. Rosenzweig tomonidan tadqiq qilingan. Ularning ilmiy ishlarida raqamli tarix (Digital History) konsepsiyasi, elektron arxivlar hamda tarixiy ma'lumotlar bazalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Birlamchi manbalar bilan ishlash metodikasi bo'yicha S. Wineburgning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim tarixiy tafakkurni shakllantirishda manbaviy tanqid, dalillarni qiyoslash va tarixiy kontekstni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarixiy bilim tayyor ma'lumotni o'zlashtirish emas, balki tarixiy dalillar asosida mustaqil xulosa chiqarish jarayonidir.

Sun'iy intellekt asosidagi yirik til modellari (LLM) imkoniyatlari va ularning ta'limdagi qo'llanilishi masalalari T. Kasneci, G. Bates hamda E. Mollick tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlashi bilan bir qatorda, axborotning ishonchligini tekshirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi qayd etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ta'limdagi imkoniyatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, bo'lajak tarix o'qituvchilarining birlamchi manbalar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-metodik mexanizmlar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga yo'naltirilgan.

Tarix ta'limida raqamli vositalarning rivojlanishi bosqichma-bosqich evolyutsion jarayon sifatida shakllangan. Raqamli tarix texnologiyalarining dastlabki avlodi sifatida qaraladigan 1990-yillardagi CD-ROM formatidagi multimedia ensiklopediyalari hamda dastlabki internet ma'lumot bazalari asosan tarixiy axborotni saqlash va yetkazishning yangi vositasi vazifasini bajargan. Ushbu davrda raqamli texnologiyalar tarixiy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, o'quvchi va manba o'rtasidagi metodik munosabatlarni sezilarli darajada o'zgartirmagan.

2000-2010-yillar oralig'ida shakllangan ikkinchi avlod raqamli tarix vositalari - onlayn manba arxivlari, elektron fotojamlanmalar, raqamli hujjat bazalari hamda video-tarix loyihalari birlamchi tarixiy manbalarga murojaat qilish imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur texnologiyalar tarixiy hujjatlarning ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli ravishda oshirdi, biroq manbalarni tahlil qilish, talqin etish va ular bilan mustaqil ishlash metodologiyasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmadi.

2015-yildan keyingi davrda rivojlangan immersiv texnologiyalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlariga asoslangan uchinchi avlod raqamli vositalari esa tarixiy manbalar bilan ishlash jarayonining mazmunini sifat jihatidan o'zgartirish imkonini berdi. Bu bosqichda ta'lim oluvchi birlamchi manbani faqat qabul qiluvchi yoki o'rganuvchi subyekt sifatida emas, balki u bilan faol o'zaro munosabatga kirishuvchi tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, virtual muhitda tarixiy obyektlarni uch o'lchamli (3D) formatda o'rganish, qadimgi yozuv va matnlarni raqamli vositalar yordamida tahlil qilish, tarixiy voqealarni modellashtirish hamda sun'iy intellekt asosida tarixiy jarayonlarni qayta talqin qilish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda^[2].

Raqamli ta'lim texnologiyalari rivojlanishining ushbu evolyutsion jarayoni O'zbekiston tarix ta'limi tizimini modernizatsiya qilish nuqtayi nazaridan muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki tarixiy manbalarni raqamlashtirish jarayoni nafaqat axborot resurslarini saqlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki birlamchi manbalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi pedagogik-metodik imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi.

Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni asosida arxiv sohasini bosqichma-bosqich raqamlashtirish strategiyasi belgilangan bo'lib, u milliy tarixiy merosni zamonaviy raqamli muhitga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon quyidagi ustuvor bosqichlar asosida amalga oshirilishi belgilangan:

- *birinchi bosqichda* (2025–2027-yillar) - noyob hamda alohida ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlarini raqamlashtirish;
- *ikkinchi bosqichda* (2028–2029-yillar) - kino, foto, fono hamda ilmiy-texnik hujjatlarning yagona raqamli bazasini shakllantirish;
- *uchinchi bosqichda* (2030-yildan boshlab) - Milliy arxiv fondida saqlanayotgan barcha turdagi hujjatlarni bosqichma-bosqich to'liq raqamli formatga o'tkazish nazarda tutilgan.

Mazkur islohotlar tarix ta'limida raqamli manbalar bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish, talabalarni birlamchi tarixiy manbalarni mustaqil izlash, tahlil qilish va ilmiy talqin etishga tayyorlashning institutsional asoslarini yaratadi.

Bundan tashqari, 2026-yildan boshlab amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan "Shajara" axborot tizimi genealogik manbalarni tizimlashtirish, ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tarix ta'limi jarayonida shajaraviy manbalar bilan ishlashning milliy raqamli platformasini shakllantirish salohiyatiga ega. Mazkur tizim tarixiy axborot resurslarini nafaqat saqlash va ommalashtirish, balki ularni ta'limiy maqsadlarda qo'llash imkoniyatlarini ham kengaytirishi mumkin.

Ushbu huquqiy-me'yoriy asoslar raqamli texnologiyalarni tarixiy manbalar bilan ishlash pedagogikasiga integratsiya qilish masalasi faqat nazariy konsepsiya emas, balki zamonaviy ta'lim jarayonining muhim amaliy ehtiyoji ekanligini ko'rsatadi. Arxiv tizimining izchil raqamlashtirilishi sharoitida bo'lajak tarix o'qituvchilarining raqamli manbalarni izlash, tahlil qilish va ilmiy talqin etish bo'yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega bo'lmashligi ta'lim jarayoni hamda raqamli manbalar muhiti o'rtasida muayyan nomutanosiblikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni tarix o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar orqali integratsiya qilish istiqboldagi vazifa emas, balki zamonaviy tarix ta'limining dolzarb ehtiyoji sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy ta'lim tizimida arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, elektron tarixiy resurslarni yaratish va yangi platformalarni joriy etish jarayonlari xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan yirik til modellari (Large Language Models - LLM) imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix ta'limiga kirib kelishi zamonaviy pedagogikada tarixiy muloqot simulyatsiyalari (historical dialogue simulations) kabi yangi didaktik yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Jumladan, AQSh va Janubiy Koreya ta'lim muassasalari tajribasida sinovdan o'tkazilgan "Ask Sir Oliver Ingham" loyihasi tarixiy shaxslar bilan sun'iy intellekt asosidagi interaktiv muloqotni tashkil etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda yirik til modellari yordamida XIV asr ingliz sud amaldorining virtual tarixiy obrazi shakllantirilgan bo'lib, sun'iy intellekt muayyan tarixiy davrga xos dunyoqarash, nutq uslubi, terminologiya va dalillash madaniyatini modellashtirish asosida javob beradi. Natijada talaba tarixiy jarayonlarni tayyor ma'lumot sifatida qabul qilmasdan, balki tarixiy subyekt bilan muloqot qiluvchi faol tadqiqotchi sifatida savol berish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro ta'lim tajribalarining tahlili yirik til modellari (LLM) imkoniyatlari asosida tarixiy davrlarga xos tafakkur tarzi, nutq madaniyati, leksik xususiyatlar hamda dalillash usullarini modellashtirish orqali tarixiy shaxslarning virtual interaktiv modellarini yaratish mumkinligini ko'rsatmoqda. Mazkur yondashuvda ta'lim oluvchi tarixiy hodisa va jarayonlarni faqat tayyor axborot sifatida o'zlashtirmaydi, balki raqamli muhitda tarixiy manba yoki shaxs modeli bilan faol muloqotga kirishish orqali mustaqil savol berish, tahliliy fikrlash va ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar sun'iy intellekt asosida yaratilgan tarixiy personajlar simulyatsiyasi tarix ta'limida interaktiv o'quv muhitini shakllantirish, talabalarning tarixiy voqelikni turli nuqtayi nazardan anglash qobiliyatini rivojlantirish hamda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini takomillashtirishda samarali pedagogik vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Texnologik, pedagogik va predmetga oid bilimlar integratsiyasiga asoslangan yondashuv raqamli simulyatsiyalarni birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlash jarayoniga maqsadli va tizimli joriy etish imkonini beradi. Bunday yondashuvda raqamli vositalar oddiy axborot taqdim etuvchi texnologiya sifatida emas, balki tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik muhit sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, birlamchi manbalar asosidagi raqamli simulyatsiyalarni quyidagi uch bosqichli pedagogik vazifalar tizimi orqali tashkil etish maqsadga muvofiq:

- birlamchi manbani yaratilgan tarixiy davr, vaqt va ijtimoiy-madaniy muhit kontekstida tahlil qilish;
- manba muallifining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, tarixiy pozitsiyasi hamda manbani yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsadlarini aniqlash;
- manbani tahlil qilish natijasida shakllangan tarixiy bilim va ilmiy xulosalarni zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni tushunish, baholash hamda tahlil qilish faoliyatiga tatbiq etish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi doirasida raqamli simulyatsiyalarning birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlash jarayonidagi didaktik imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan konseptual yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqotda raqamli simulyatsiya texnologiyalarining ta'lim oluvchilarning motivatsion, emotsional hamda tahliliy faoliyat komponentlariga ta'sirini o'rganishda tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlardan foydalanildi.



Shuningdek, raqamli muhitda tarixiy manbalarni o'zlashtirish jarayonining interaktiv xususiyatlari hamda an'anaviy matnli manba tahliliga asoslangan metodikalardan farqli jihatlari qiyosiy tahlil asosida baholandi.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi imkoniyatlarini bir tomonlama yuqori baholash yoki ularni universal yechim sifatida talqin qilish yondashuvidan voz kechish muhim hisoblanadi. Chunki zamonaviy ilmiy izlanishlarda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bilan bog'liq muayyan metodologik cheklov va xavflar mavjudligi alohida ta'kidlanmoqda.

Bunday muammolardan biri raqamli shaklda yaratilgan kontent hamda autentik tarixiy manba o'rtasidagi chegaraning noaniqlashuvi bilan bog'liq. Yirik til modellari (LLM) mavjud ma'lumotlar asosida tarixiy mazmundagi matnlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ular mustaqil tarixiy dalil yoki haqiqiy arxiv manbasi vazifasini bajarmaydi. Shu sababli sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan axborotni asl birlamchi manba bilan tenglashtirish ta'lim oluvchilarda tarixiy dalil, talqin va sun'iy yaratilgan kontent o'rtasidagi farqni aniqlashda metodologik chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur yo'nalishdagi yana bir muhim xavf talabalarda "narrativni tasdiqlash"ga yo'naltirilgan yondashuv shakllanishi bilan bog'liq. Agar sun'iy intellekt mahsuli tanqidiy tekshiruvdan o'tkazilmasdan tayyor tarixiy manba sifatida qabul qilinsa, ta'lim oluvchilarda manbaviy tanqid, dalillarni solishtirish va mustaqil talqin qilish ko'nikmalari zaiflashishi ehtimoli mavjud. Natijada tarixiy bilish jarayoni mustaqil tahlildan ko'ra, sun'iy intellekt tomonidan shakllantirilgan tayyor bayonlarni qabul qilish va tasdiqlashga yo'naltirilishi mumkin.

Xalqaro tajribalar, jumladan, Singapur maktablari misolida olib borilgan tadqiqotlar ham raqamli texnologiyalar bilan ishlash jarayonida manbaviy tanqid ko'nikmalarini alohida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Aks holda, ta'lim oluvchilar tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy baholash o'rniga mavjud raqamli narrativlarga moslashish va ularni tasdiqlashga moyil bo'lib qolishi mumkin ^[5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarning tarix ta'limidagi didaktik imkoniyatlari va metodologik cheklovlarini kompleks o'rganish jarayonida ularning bo'lajak tarix o'qituvchilarining manbaviy kompetentligini rivojlantirishdagi funksional o'rni tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasida raqamli texnologiyalar texnik axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki ta'lim oluvchining bilish faolligi, tarixiy tafakkuri va tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantiruvchi didaktik muhit elementi sifatida talqin etildi.

Mazkur metodologik pozitsiya asosida tadqiqot doirasida "manbaviy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik stimulyatorlar (intensifikatorlar)" tushunchasining konseptual mazmuni ishlab chiqildi. Ushbu tushuncha raqamlashtirilgan arxiv muhiti sharoitida bo'lajak tarix o'qituvchilarining birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlashga oid kognitiv, analitik va empatik faoliyat komponentlarini faollashtirishga xizmat qiluvchi didaktik mexanizm sifatida qaraldi. Pedagogik stimulyatorlar sun'iy intellekt hamda immersiv texnologiyalar (VR/AR/3D) yordamida tarixiy jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini yaratsa-da, tadqiqotda ular an'anaviy manbaviy tanqid metodlarining o'rnini bosuvchi emas, balki ularning samaradorligini oshiruvchi raqamli-didaktik konfiguratsiyalar sifatida baholandi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik stimulyatorlarning oddiy elektron resurslar yoki raqamli axborot manbalaridan farqli jihatlarni aniqlashda interaktivlik, didaktik boshqaruvchanlik va mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish mezonlari asos qilib olindi. Ushbu yondashuvga muvofiq, raqamli muhit talabaga tayyor tarixiy ma'lumotni yetkazuvchi platforma sifatida emas, balki tarixiy dalillarni izlash, tahlil qilish, qiyoslash hamda tanqidiy baholash faoliyatini tashkil etuvchi metodik maydon sifatida o'rganildi.

Tadqiqot modeli doirasida pedagogik stimulyatorlarning funksional imkoniyatlari uch asosiy yo'nalishda tahlil qilindi:

Birinchi yo'nalish - motivatsion-empatik stimulyatsiya bo'lib, bunda raqamli simulyatsiya va sun'iy intellekt vositalari orqali tarixiy shaxslar, voqealar va davr muhitini modellashtirishning ta'lim oluvchilarning tarixiy qiziqishi hamda empatik idrokiga ta'siri o'rganildi.

Ikkinchi yo'nalish - protsessual-transformatsion stimulyatsiya bo'lib, unda raqamlashtirilgan tarixiy hujjatlar, uch o'lchamli modellar va virtual arxiv muhirlari yordamida an'anaviy manba bilan ishlash jarayonining interaktiv tadqiqot faoliyatiga aylanish mexanizmlari tahlil qilindi.

Uchinchi yo'nalish - kognitiv-analitik stimulyatsiya bo'lib, bunda sun'iy intellekt tomonidan shakllantirilgan raqamli kontent va haqiqiy tarixiy manbalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash orqali talabalarda manbaviy tanqid, dalillarni tekshirish hamda tarixiy axborotni baholash kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq etildi.

Ushbu muammoli holat zamonaviy raqamli texnologiyalarning milliy qo'lyozmalarni avtomatik o'qishdagi oqizligini pedagogik jihatdan imkoniyatga aylantiradi. Zero, nuqsonli yoki to'liq bo'lmagan avtomatik transkripsiya talaba uchun faollik, tanqidiy tafakkur va mustaqil manba tahlili uchun didaktik muhit yaratadi.

Biz taklif etayotgan tizim uchta asosiy blokdan iborat:

- raqamli arxiv manbalari;
- OBT va QMT avtomatik matn tanish platformalari;
- pedagogik stimulyatorlar.

Tadqiqot doirasida pedagogik stimulyatorlar tizimining ishlash tamoyillari taqdim etildi (1-rasmga qarang).



1-rasm: **Raqamli pedagogik stimulyatorlar tizimining umumiy arxitekturasini**

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida tarix ta'limining raqamli transformatsiyasi jarayonida texnologik yangiliklarni joriy etishning o'zi yetarli emasligi, balki ularni aniq pedagogik maqsad, metodik boshqaruv va manbaviy tahlil tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurligi aniqlandi. Shu bois raqamli vositalarni tarixiy bilimni tayyor shaklda yetkazuvchi manba sifatida emas, balki talabning mustaqil izlanishi, tarixiy tafakkuri va ilmiy munosabatini shakllantiruvchi ta'lim muhiti sifatida loyihalash maqsadga muvofiq.

Milliy arxiv fondini raqamlashtirish jarayonida yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun tarix yo'nalishidagi pedagog kadrlarni tayyorlash dasturlariga raqamli manbashunoslik, sun'iy intellekt asosida tarixiy axborotni tahlil qilish hamda virtual arxiv muhitida ishlashga oid amaliy komponentlarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bunda asosiy e'tibor texnologiyadan foydalanish ko'nikmasiga emas, balki raqamli manbaning ishonchligini baholash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Kelgusida tarix ta'limida raqamli texnologiyalarni joriy etishda inson omili va pedagogik nazorat ustuvorligini saqlagan holda moslashuvchan didaktik modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli simulyatsiyalar, sun'iy intellekt va immersiv texnologiyalar tarixiy bilish jarayonini avtomatlashtiruvchi vosita emas, balki o'qituvchi rahbarligida talabning tadqiqotchilik faoliyatini kengaytiruvchi innovatsion metodik mexanizm sifatida rivojlantirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guan, C., Mou, J., & Jiang, Z. (2020). Artificial intelligence innovation in education: A twenty-year data-driven historical analysis. *International Journal of Innovation Studies*, 4, 134-147. <https://doi.org/10.1016/j.ijis.2020.09.001>
2. Bhagat, S., Meenakshi, Bakshi, P., & Aman. Integrating technology in history education: digital pathways and transformative practices aligned with nep 2020. *International Journal on Science and Technology*. Volume 16, Issue 2, April-June 2025 <https://doi.org/10.71097/ijst.v16.i2.4531>; Firmansyah, H., & Atmaja, T. (2025). Transformation of history learning methods in the digital era: Challenges and opportunities in schools. *Indonesian Journal of Educational Development (IJED)*. <https://doi.org/10.59672/ijed.v6i1.4791>
3. Park, K., Song, H., Seo, S., Kim, J., & Suh, B. (2025). "Ask Sir Oliver Ingham": LLM-based Social Simulations for History Education. *Proceedings of the Extended Abstracts of the CHI Conference on Human Factors in Computing Systems*. <https://doi.org/10.1145/3706599.3719728>
4. Kim, Y., Moon, H., Lee, S., & Lee, T. (2025). "HistoChat": Leveraging AI-Driven Historical Personas for Personalized and Engaging Middle School History Education. *Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction*, 9, 1 - 37. <https://doi.org/10.1145/3757534>



5. Lim, M. (2025). Rethinking history education in the age of AI. HSSE Online. <https://doi.org/10.32658/hsseo.2025.13.1.2>;
- Lim, K., & Lim, R. (2020). Semiotics, memory and augmented reality: History education with learner-generated augmentation. *Br. J. Educ. Technol.*, 51, 673-691. <https://doi.org/10.1111/bjet.12904>
6. Yursinboyev J.M. Issues of developing modern competences of future teachers on the basis of the “future teacher” model (“Kelajak o'qituvchisi” modeli asosida bo'lajak pedagoglarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari) // *Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy*. ISSN (E): 3067-7874. Volume 01, Issue 09. - 2025. - B. 439-443.
7. Yursinboyev J.M. “Kelajak o'qituvchisi” modelida raqamli texnologiyalarning o'rni (Tarix fani misolida) // *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali materiallari to'plami*. - 2025-yil 20-dekabr. - №46. - B. 344-346.
8. Yursinboyev J.M. Kelajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati // “Raqamlashgan jamiyatdan axborotlashgan jamiyat sari: ta'limdagi transformatsiyalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Chirchiq, 2025. – B. 490–495.
9. Yursinboyev J.M. Международные тенденции опыта использования первичных источников в преподавании истории и особенности его развития в системе образования Узбекистана (Tarix fanini o'qitishda birlamchi manbalardan foydalanish tajribasining xalqaro tendensiyalari va O'zbekiston ta'lim tizimidagi rivojlanish xususiyatlari) // “Научные исследования в динамике глобальных изменений”: материалы международной научно-практической конференции / отв. ред. Т.В. Смирнова. - Санкт-Петербург: ЦПМ “Академия Бизнеса”, 2026. - С. 202-211.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.